

XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIIY VA PSIXOLOGIK MUAMMOLARINI ANIQLASH HAMDA BARTARAF ETISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Annakulov Kamol Xasanovich

*Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
loyiha katta ilmiy xodimi, i.f.f.d. (PhD).*

Annotatsiya. Ushbu maqolada xotin-qizlarning ijtimoiy va psixologik muammolarini aniqlash va bartaraf etishdagi zamonaviy yondashuvlar tahlil qilingan. Xalqaro va mahalliy tajribalar asosida xonadonma-xonadon monitoring, fokus-grupplar, raqamli platformalar va institutsional ma'lumotlar tahlili kabilarni aniqlash usullari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, psixologik yordam, ijtimoiy himoya, huquqiy ko'mak va ta'lim orqali ayollarga ko'mak berish mexanizmlari yoritilgan. Maqolada mahalla tizimida mazkur usullarni joriy etish orqali ayollarning hayot sifatini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Аннотация. В статье анализируются современные подходы к выявлению и решению социальных и психологических проблем женщин. На основе международного и местного опыта рассматриваются такие методы выявления, как мониторинг домохозяйств, фокус-группы, цифровые платформы, институциональный анализ данных. Также освещаются механизмы поддержки женщин посредством психологической помощи, социальной защиты, юридической помощи и образования. В статье даются практические рекомендации по улучшению качества жизни женщин путем внедрения этих методов в систему махалли.

Annotation. This article analyzes modern approaches to identifying and addressing women's social and psychological problems. Based on international and local experiences, methods of identification, such as household monitoring, focus groups, digital platforms, and institutional data analysis, are considered. It also highlights mechanisms for supporting women through psychological assistance, social protection, legal assistance, and education. The article provides practical recommendations for improving the quality of life of women by introducing these methods in the mahalla system.

Kalit so'zlar. Ayollar, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, psixologik yordam, gender tengligi, jamoatchilik monitoringi, zo'ravonlikning oldini olish.

Keywords. Women, social support, psychological assistance, gender equality, community monitoring, violence prevention.

Ключевые слова. Женщины, социальная поддержка, психологическая помощь, гендерное равенство, общественный мониторинг, предотвращение насилия.

Bugungi kunda, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, bandligini ta'minlash, zamonaviy kasb-hunarlariga o'qitish, tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish, oliy ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishi etib belgilangan.

Shu munosabat bilan mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ehtiyojmand xotin-qizlarni kompleks qo'llab-quvvatlash, ularning muammolarini hal etish, turmush sharoitini yaxshilash borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar, shu jumladan, nogironligi bo'lgan ayollar bilan yakka tartibda hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarni olib borish, ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish ishlarini tashkil etish mahalladagi xotin-qizlar faolining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan⁷⁶. Xotin-qizlar jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va rivoji uchun muhim sub'ekt hisoblanadi. Bugungi kunda ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash, turmush darajasini oshirish, ular duch kelayotgan muammolarni aniqlash va bartaraf etish masalasi barcha davlatlar uchun dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Zero, ayollar hayotidagi ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik to'siqlar ularning faolligi va imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Xotin-qizlarning muammolarini barvaqt aniqlash va ularni hal etish esa faqat huquqiy va institutsional choralar bilan emas, balki ijtimoiy-psixologik yondashuvlar bilan ham ta'minlanishi zarur.

Psixologik nuqtai nazardan, xotin-qizlar ko'p hollarda turmushdagi zo'ravonlik, oilaviy janjallar, ijtimoiy izolyatsiya, depressiya, o'zini qadrlamaslik kabi holatlarga duch keladi. Bu kabi muammolar nafaqat ayollarning ruhiy salomatligiga, balki farzandlar tarbiyasi va butun oila muhitiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha har uchinchi ayol umri davomida turli shakllarda zo'ravonlikka uchraydi, ularning katta qismi esa yordam so'rashga uyalgani yoki qo'rqqani uchun buni yashirin tutadi⁷⁷.

Ijtimoiy nuqtai nazardan, xotin-qizlar muammolarini aniqlashda mahalla faollari, ijtimoiy xodimlar va jamoatchilik tashkilotlarining roli alohida ahamiyatga ega. Ular orqali ayollar muammolari barvaqt aniqlanib, tegishli psixologik va ijtimoiy yordamni ko'rsatish

⁷⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Оила ва хотин-қизлар билан ишлаш, маҳалла ва нуронийларни қўллаб-қувватлаш тизimini такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2022-йил 1-мартдаги ПФ-81-сон Фармони 8-банд 5-хатбоши

⁷⁷ (WHO, 2021)[1].

mumkin. Ayniqsa, mahalladagi faol xotin-qizlarning o‘z jamoasi bilan ishlashi, fidoiylilik va ishonch muhitini shakllantirishi ayollar muammolarini yengil aniqlashga yo‘l ochadi⁷⁸.

Asosiy qism. Har bir ayol (qiz) noyob va o‘ziga xosdir. Shu jihat bilan bog‘liq holda xotin-qizlar faolining asosiy vazifasi ularni zamonaviy bilim, kasb-hunar egallashlari uchun undash, aqliy imkoniyatlari, uning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish orqali munosabatda bo‘lish zarur.

Bu borada ularni ijtimoiy hayotga to‘siqlarsiz uyg‘unlashib ketishiga ko‘maklashish, buning uchun zarur sharoit yaratish, har bir ayol (qiz) uchun individual yondashuvni topish, hech bir muammoli ayol (qiz)ni e‘tibordan chetda qoldirmaslik, ularni oilada va jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, o‘z muammolarini mustaqil ravishda o‘qish, mehnat qilish orqali hal qila olishiga ishonтира olish muhim ahamiyatga ega.

Ularga bunday imkoniyatning yaratilishi uning psixologik rivojlanishi, ijtimoiylashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday muhit ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta’minlaydi.

Mazkur jarayonda ijobiy natijaga erishish uchun barcha mas’ullar puxta tayyorgarlik ko‘rishi lozim. Hattoki oila a’zolari bilan suhbat o‘tkazish, ular bilan individual ish olib borish, ular bilan amalga oshiriladigan harakatlar rejasini aniq belgilab olish uchun muhim ahamiyatga ega.

Xotin-qizlarning muammolarini aniqlash va bartaraf etishda qo‘llanilayotgan ijtimoiy-psixologik mexanizmlar xalqaro amaliyot va ilmiy tahlillarga asoslangan holda to‘rt asosiy yo‘nalishda shakllanadi:

✓ Muammolarni aniqlash usullari

Xonadonma-xonadon monitoring va muloqot. Hindistonda va Germaniyada maxsus modellar asosida mahallada faol ayollar uyma-uy yurib, xotin-qizlar bilan muloqotga kiradi. Bu orqali ularning salomatligi, ijtimoiy ehtiyojlari, zo‘ravonlik holatlari yoki psixologik tushkunligi haqida ma’lumot yig‘adi. Shaxsiy muloqot asosida ishonchli muhit yaratiladi, bu esa aniqlangan muammolarni tezda yechishga yordam beradi.

Fokus-grupplar va psixologik baholash. Faol ayollar yoki mahalla mutaxassislari muayyan ijtimoiy guruhlariga kiruvchi xotin-qizlar bilan fokus-guruh suhbatlari o‘tkazadi. Ayniqsa, yolg‘iz onalar, nogironligi bor xotin-qizlar va yosh kelinlar orasidagi muammolarni aniqlashda psixologik testlar va suhbat jarayoni samarali hisoblanadi⁷⁹.

Raqamli axborot tizimlari va anonim platformalar. Ayrim davlatlarda xotin-qizlar muammolarini yashirin bildirish imkonini beradigan elektron kanallar joriy etilgan. Masalan, AQShdagi “AQSh ayollar boshpanasi” mobil ilovalari orqali ayollar zo‘ravonlik

⁷⁸ (Gavin et al., 2020)[2]

⁷⁹ Patel et al., 2018

yoki stress holatlarini bildirishlari mumkin. Bu axborotlar maxfiy saqlanadi va zudlik bilan yordam ko‘rsatish tizimiga yo‘naltiriladi.

Institutsional ma’lumotlar tahlili. Sog‘liqni saqlash muassasalari, ta’lim, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar va mahalliy hokimiyat organlari ma’lumotlari asosida xotin-qizlar muammolari bo‘yicha statistik tahlillar olib boriladi. Bu tahlillar profilaktika va xizmatlarni moslashtirish uchun muhim hisoblanadi.

✓ Muammolarni bartaraf etish usullari

Ijtimoiy himoya va iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash. Ayollarning iqtisodiy mustaqilligini oshirish, zo‘ravonlik qurboni bo‘lganlarga turar joy, ijtimoiy nafaqa va ish bilan ta’minlash xizmatlari muhim ahamiyatga ega.

Huquqiy yordam va himoya mexanizmlari. Zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlar uchun himoya orderlari, sud advokat yordami va bolalarni himoya qilish mexanizmlari bepul ko‘rsatilmoqda. Yevropa tajribasida ushbu xizmatlar davlat va NNTlar hamkorligida amalga oshiriladi.

Ta’lim va raqamli savodxonlik. Ayollarning huquqiy bilimi, gender tengligi haqidagi xabardorligi va ishga qaytish qobiliyatini oshirish maqsadida ta’lim kurslari tashkil etiladi⁸⁰.

Yo‘naltirish va hamkorlik tizimi. Barcha xizmatlar institutsional hamkorlik asosida tashkil etiladi. Mahalla, psixologlar, huquqshunoslar va tibbiyot xodimlari o‘rtasida ma’lumot almashish va jadal yo‘naltirish tizimi mavjud. Bu tizim muammolarni tez va samarali hal etishga xizmat qiladi⁸¹.

Quyidagi diagrammada AQSh tajribasi asosida xotin-qizlar muammolarini aniqlash va hal etishda amalga oshiriladigan asosiy bosqichlar tartibli ravishda tasvirlangan. Bu model “jamoaga asoslangan yondashuv” asosida ishlaydi va quyidagi besh asosiy yo‘nalishni qamrab oladi:


✓ Uyuma-uy monitoring va muloqot – mahalla faollari, NNT va jamoat yetakchilari ayollar bilan bevosita muloqot orqali muammolarni barvaqt aniqlaydi.

✓ Psixologik va huquqiy fokus-grupplar – muntazam ravishda o‘tkaziladigan seminar va guruh terapiyalari orqali stress, depressiya va zo‘ravonlik kabi holatlar erta aniqlanadi.

✓ Favqulodda yordam markazlari – zo‘ravonlik qurbonlari uchun maxsus boshpana, huquqiy himoya va psixoterapiya xizmatlari tashkil etiladi.

⁸⁰ Zastrow & Kirst-Ashman, 2021

⁸¹ UN Women, 2020



1-rasm. AQShda xotin-qizlar muammolarini aniqlash va bartaraf etish bosqichlari

- ✓ Qayta hayotga moslashuv dasturlari – ayollarga kasb-hunar o‘rgatish, ishga joylashish va ijtimoiy adaptatsiya bo‘yicha ko‘mak ko‘rsatiladi.
- ✓ Maxfiy hisobot va monitoring tizimi – barcha ma’lumotlar maxfiy asosda to‘planadi, tahlil qilinadi va davlat hamda mahalliy tashkilotlar bilan almashiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, xotin-qizlar muammolarini aniqlash va bartaraf etish jarayoni — jamiyatning barqaror rivojlanishi, oila institutining mustahkamligi va ayollar huquqlarining to‘liq ro‘yobga chiqishi uchun strategik ahamiyatga ega. Bugungi kunda xalqaro tajriba shundan dalolat beradiki, ayollar muammolarini vaqtida aniqlash, to‘g‘ri yo‘naltirish va tizimli bartaraf etish faqat birlamchi yordam bilan cheklanmasligi kerak. Bu jarayon kompleks, ko‘p bosqichli va ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi.

Avvalo, faol monitoring tizimini joriy etish zarur. Bunda mahalla xotin-qizlar faollari, tibbiy xodimlar va psixologlardan iborat jamoalar xonadonma-xonadon yurib, ehtiyojmand ayollarni aniqlaydi. Bu mexanizm Hindiston va Germaniyada qo‘llangan modellardan biri ekanligi va aniqlangan muammolarni erta bosqichda hal etish imkonini beradi.

Ikkinchidan, psixologik diagnostika va reabilitatsiya xizmatlari har bir mahallada bo‘lishi kerak. Chunki ko‘plab muammolar, ayniqsa zo‘ravonlik va ijtimoiy yetishmovchilikka duch kelgan ayollarda, ko‘zga ko‘rinmas, ichki zo‘riqish va ruhiy

jarohatlar shaklida namoyon bo‘ladi. Janubiy Koreya va AQShdagi “baxt markazlari” va “himoya uylari” bu xizmatlarni yuqori samara bilan taqdim etmoqda.

Uchinchidan, huquqiy va iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash tizimi ayollar muammolarini samarali hal etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Huquqiy maslahatlar, sudda himoya, turli treninglar va kasb-hunar kurslari orqali ayollar mustaqil qaror qabul qilish, moliyaviy barqarorlikka erishish va qayta ijtimoiylashish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

To‘rtinchidan, jamoatchilik va NNTlar bilan hamkorlik tizimi ayollar muammolarini uzviy hal etishning kafolati hisoblanadi. Bu tashkilotlar mahalliy darajada ayollar ishonchini qozonish, ularni qo‘llab-quvvatlash va ehtiyojlarini tizimli ravishda o‘rganishda katta rol o‘ynaydi.

Ushbu xalqaro tajribalardan kelib chiqib, O‘zbekistondagi mahalla tizimida quyidagi yo‘nalishlarni takomillashtirish maqsadga muvofiq:

- Har bir mahallada ayollar uchun bepul psixologik va huquqiy yordam markazlarini tashkil etish;
- Xotin-qizlar faollarini muntazam trening va malaka oshirish kurslariga jalb etish;
- Jamoatchilik va nodavlat sektorlar bilan institutsional hamkorlik tizimini kuchaytirish;
- Ayollar muammolari haqida raqamli axborot bazasini yaratish va maxfiylikni ta’minlagan holda tahlil qilish.

Shunday qilib, xotin-qizlar muammolarini aniqlash va bartaraf etishdagi ijtimoiy-psixologik yondashuvlarni mahalla tizimiga moslashtirish — ayollarning hayot sifatini oshirish, ularni jamiyatda munosib o‘ringa ega bo‘lishiga zamin yaratish, shu bilan birga, O‘zbekistonda gender tengligini ta’minlash yo‘lida muhim amaliy qadam bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Musurmanova O., Norqulov., Abdurahimova F. Mahallada oila farovonligi: milliy qadriyatlar va odob durdonalari: uslubiy qo‘llanma / - Toshkent: “Mahalla va oila” nashriyoti, 2023. - 140 b.
2. Miralimov Sh. Mahalla mehri. – T.: Yoshlar mediaprint, 2021. – 100 b.
3. Egamberdiyeva, N.M., Tuychiyeva. G.G., Ismaylova, R.N. Tayziq va zo‘rovonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga psixologik yordam ko‘rsatish: uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: “Mahalla va oila” nashriyoti, 2022. – 144 b.
4. Patel V. et al. (2018). *Role of community health workers in women’s mental health care in LMICs*. [PMC5803443](https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/35803443/)
5. World Health Organization. (2021). *Mental health of women in community systems*.

6. UN Women. (2020). *Community-based approaches to gender-based violence prevention.*
7. National Institute of Mental Health. (2021). *Psychosocial interventions for vulnerable women.*
8. Zastrow, C., & Kirst-Ashman, K. (2021). *Understanding Human Behavior and the Social Environment.*
9. UNICEF (2022). *Gender equality and psychosocial protection services.*